

O‘ZBEK TILIDA INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI SO‘ZLARNI
"CHIROYLI QO‘LLASH" HAQIDA

Choriyeva Gulchehra Umbar qizi

CHDPU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2 - bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Shermatova Umida Sapayevna

ChDPU gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi p.f.f.d.(PhD)

Annotasiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida boshqa tillarning so‘zlarini qo‘shib ishlatish va buning oqibatida tilimizga putur yetkazish hamda yechimlari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, rus tili, ingliz tili, til to‘g‘risidagi qonunlar , milliy kurash.

Ma‘lumki, asrlar davomida meros bo‘lib bizgacha yetib kelgan o‘zbek tili - dunyo tillari ichida eng boy tillardan biri. Til bor ekan, millat ham tirik demakdir. Endi vijdonan javob beraylik. Biz o‘z ona tilimizni asrash uchun harakat qilyapmizmi? Bizdan keyin o‘zbek tili yana qancha yashashi mumkin? Nega o‘z ona tilimizni buzib ,unga ruscha yoxud inglizcha so‘zlarni qo‘shib ishlatyapmiz-a?

Keyingi vaqtlarda o‘zbek tilining mavqei haqida ko‘plab fikr-mulohazalarni o‘qishimizga to‘g‘ri kelyapti. Muammo shundaki, tilning jamiyatdagi mavqeini har qancha qaror-u farmonlar bilan ham, janjal-u majlislar bilan ham mustahkamlab bo‘lmaydi. Bugungi kunda tillarning bir-biriga salbiy ta‘siri va chetdan noo‘rin so‘zlar kirib kelishi ortmoqda. Yurtimizda kechayotgan bu jarayon - turli so‘zlarga ,turli nomlarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish biz uchun xavotirli holatdir.

Ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy bobomiz aytganidek:" Har bir millatning dunyoda borliging ko‘rsatadurgan oyinai hayoti va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur".

Tilning boyishi ham, buzilishi ham ikki xil yo‘sinda kechadi. Biri - xorijiy so‘zlarni o‘rinli va o‘rinsiz qo‘llash. Ikkinchisi - xorijiy tillarning ta‘siri.

Muomalaga yangi bir so‘r kirib kelyaptimi , ziyolilarimiz bu chet so‘zning jamiyat ongida muhrlanmasdan oldinroq o‘zimizga qulayroq bo‘lgan shaklini hozirjavoblik bilan taklif etish kerak. Bu avvalo lug‘atlar orqali amaliyotga tadbiiq qilinishi mumkin. Aks holda, muommo chigallashgandan chigallashadi. Bunga misol qilib aytadigan bo‘lsak, ko‘p insonlar nutqida ishlatiladigan " uje" ," lyuboy" so‘zlari . Bu so‘zlar nafaqat oddiy ko‘chada ishlatiladi , balki, buni hatto o‘quvchi- talabalar- u o‘qituvchilar nutqida kuzatyapmiz. " Uje " so‘zini muqobil varianti o‘zbek tilidagi " allaqachon,hali, shu paytgacha" modal va kirish so‘zlariga tarjima qilinsa, "lyuboy

"soʻzi esa "har qanday " maʼnosini beradi. Bu gaplarimizga qarshi koʻpchilik rus tili "bizga singib qolgan , bizga odatmumkiniy hol" deyishi . Lekin hozirgi kunda urfga aylanayotgan ingliz tili- chi? U tildagi baʼzi bir soʻzlarni biz juda oddiy, oʻz tilimizdagi soʻzday ishlatyapmiz-ku. Yo yolgʻonmi? Bu shunchaki achchiq haqiqat axir. Bunga ham misol keltiraylik . Har narsa isbot bilan albatta." Creative", " motivation, motive", " feyk", " piar", " brend" va h.k. Yana qabul qilingan koʻplab loyihalar nomlari : startup, JustStart, Street Countdown , TEDxNavoi shular jumlasidandir.[1.]

Bularni aytishdan maqsadimiz tilimizga putur yetkazishimizga achinish keyin esa baʼzi bir oʻzbek tili kambagʻal deydiganlarga murojaatlarimiz bor. Toʻgʻri chetdagi soʻzni ishlatsangiz ham oʻzimizdagi uni muqobilini ishlatsangiz ham, albatta, ikkisi ham soʻz , ammo bizni oʻzbek degan nomimizni shu tilimiz aytadi . Ertaga avlodimizga qoladiga eng katta merosimiz bu tilimiz . Oʻzbek tilini kambagʻal deydiganlarga qarata bobomiz Abdulla Qodiriy: - Oʻzbek tili kambagʻal emas, balki oʻzbek tilini kambagʻal deguvchilarning oʻzi kambagʻal. Ular oʻz nodonliklarini oʻzbek tiliga toʻnkamasinlar, - degan ekanlar .

Maqola boshidan beri faqat kamchiliklar koʻriladi deyishingiz mumkin. Shunga qarshi biz yutuqlarga ham toʻxtalib oʻtamiz. Eng avvalo oʻzbek tiliga davlat tili maqomini berilganligi (1989- yil 21- oktabr), oʻzbek tilini asosiy imlo qoidalarini qabul qilinishi (1995 - yil 24 - avgust) va h.k. [2.]Yoki boʻlmasa oʻzbek milliy oʻyini hisoblangan " milliy kurash" ham hozirda dunyodagi koʻp mamlakatlarda oʻynalmoqda. Shu tufayli ham " halol " , " chala", "yonbosh" kabi soʻzlar dunyo miqyosida yangramoqda.Shu oʻrinda Oʻtkir Hoshimovning " Daftari hoshiyasidagi bitiklar" kitobida parcha keltiramiz:"Bir gal ancha olis safarga chiqishga toʻgʻri keldi. Avval Germaniyaga uchdik. Undan Amerikga . Soʻng Shveytsariyaga. Keyin Angliyaga . Nihoyat, Londondan Toshkentga uchadigan boʻldik. Havo kemasiga chiqishimiz bilan osoyishta va yoqimli ovoz yangradi: "Assalomu alaykum, xonimlar va janoblar! Sizlarni " Oʻzbekiston havo yoʻllari" milliy aviakompaniyasi nomidan muborakbod etamiz!" Rostini aytsam, koʻzlarimdan yosh chiqib ketdi. Bu soʻzlar mening tilimda, ona tilimda jarangladi! Vatanimdan minglab chaqirim narida, tagʻin yuzlab xorijiy yoʻlovchilar oʻtirgan kemada!..."[3.]

Ana! Koʻnglingiz Oʻtkir Hoshimovniki singari bir qalqidimi ,bir hikoya nomi singari iftixorni tuydingizmi?! Shu gʻururlanganimiz kabi har birimiz oʻz ona tilimizni sof saqlasak , tilimizga chet soʻzlarini aralashtirmasak oʻz tilimizni asragan boʻlamiz.Qolgan xulosa oʻzingizdan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. " Oʻzbekiston talabasi " jurnali /2023.N_2(3).
2. Hozirgi oʻzbek adabiy tili/ H.Jamolxonov. - T.:" Talqin ",2005.
3. Daftari hoshiyasidagi bitiklar/ Oʻ.Hoshimov . - T.:" Nurli hayot",2022.
4. " Yangi Oʻzbekiston " gazetasi /2020- yil 23- oktabr.